

KICHIK YOSHDAGI O'QUVCHILARDA TEZ O'QISH VA MAZMUNNI TUSHUNISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Mirzaliyeva Dilafrō'z Muhammadjonovna

KIUT o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17840350>

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik yoshdagi maktab boshlang'ich sinf o'quvchilarida tez o'qish va mazmunni tushunish (anglab o'qish) ko'nikmalarini shakllantirish muammosi ko'rib chiqiladi. Tez va anglab o'qish – o'quv jarayonini samarali qiluvchi muhim element bo'lib, bolalarda bilimlarni tezroq egallash, matn mazmunini to'liq tushunish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Maqolada o'qish tezligi va tushunishni yaxshilaydigan pedagogik metodlar, psixologik va didaktik tavsiyalar, hamda o'qituvchilar va ota-onalar uchun amaliy yo'l-yo'riqlar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: tez o'qish, mazmunni tushunish, boshlang'ich sinf, o'qish savodxonligi, o'qitish metodlari

Аннотация. В статье рассматривается проблема формирования у младших школьников навыков быстрого чтения и глубокого понимания текста. Быстрое и осмысленное чтение позволяет учащимся эффективнее усваивать материал, лучше понимать содержание и развивать самостоятельное мышление. В статье анализируются педагогические методы, психологические и дидактические рекомендации, а также предлагаются практические рекомендации для учителей и родителей.

Ключевые слова: быстрое чтение, понимание текста, начальная школа, грамотность, методы обучения

Abstract. This article addresses the issue of developing fast reading and comprehension skills among young primary school students. Fast, meaningful reading enables children to assimilate knowledge more efficiently, fully understand text content, and develop independent thinking. The article reviews pedagogical methods, psychological and didactic recommendations, and offers practical guidance for teachers and parents.

Keywords: speed reading, reading comprehension, primary school, literacy skills, teaching methods

KIRISH. Bugungi ta'lim muhitida keng oqimdagi axborotlar va qisqa muddatlarda ko'p ma'lumotni egallash talab qilinadi. Shu bois, maktab boshlang'ich sinflarida o'qish ko'nikmalarini–faqat harflarni aniqlab o'qishdan iborat emas, balki tez va mazmunan tushunish darajasida shakllantirish muhim pedagogik vazifadir. Tez va anglab o'qish nafaqat dars jarayonini samarali qiladi, balki o'quvchining mustaqil o'qish salohiyatini, mavzuni anglab yetish va uni tahlil qilish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Ba'zi kichik yoshdagi bolalar har bir so'zni ovozlalab, sekin–bu esa tushunishga ham salbiy ta'sir qiladi. Boshqa tomondan, tez o'qish jarayonida matn mazmuni “o'xshamay qolishi” xavfi mavjud. Shunday ekan, muammoli vazifa–tezlik va anglashuvni muvozanatda saqlaydigan metodlarni aniqlash va joriy qilishdir.

Maqolaning maqsadi – boshlang'ich sinf o'quvchilarida tez o'qish va mazmunni tushunish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik metod va tavsiyalarni aniqlash, tahlil qilish va amaliy yo'l - yo'riqlar ishlab chiqish.

Vazifalari:

- Tez o'qish va mazmunni tushunish psixologik-didaktik xususiyatlarini o'rganish.
- Bolalar o'qish odatini va qobiliyatlarini tahlil qilish.

- Samardor pedagogik metodlarni tanlash va tatbiq qilish yo'llarini ko'rsatish.
- O'qituvchi va ota-onalar uchun tavsiyalar ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR TAHLILI. O'qish ko'nikmalarini rivojlantirish, xususan, tez o'qish va mazmunni tushunish masalasi–xalqaro hamda mahalliy pedagogik va psixologik adabiyotlarda keng muhokama qilinadi.

Dunyo tajribasida – “skimming” va “scanning” usullari orqali o'qish tezligini oshirish va matn tuzilishini tushunish ko'nikmalari rivojlantiriladi. Bu usullar bolalarda o'qish malakasini oshirish, matn mazmuniga tez moslashish va asosiy g'oyani tez aniqlashga yordam beradi.

Mahalliy ta'lim metodikasida esa, boshlang'ich sinflar uchun mo'ljallangan darsliklar va qo'shimcha o'quv materiallari mazmunan qulay, qisqa va bolaga mos bo'lishi muhimligi qayd etiladi. Bunday materiallar orqali bolalar tushunarli va qiziqarli tarzda o'qishni o'rganadi.

Psixologik nuqtai nazardan, bolaning idrok, xotira va vizual-tezlik qobiliyatlari yoshiga mos ravishda rivojlantirilishi lozim, chunki tez va anglab o'qish – ko'p komponentli ko'nikma. Bu ko'nikmada matnni ko'z orqali tez kuzatish (vizual tarqatuvchanlik), so'zlarni to'liq emas, balki guruhlar shaklida idrok etish (bloklash), va mazmunni qisqa muddatda tahlil qilish muhimdir.

Shuningdek, pedagogik tajriba shuni ko'rsatadiki, kichik yoshdagi bolalarda o'qish motivatsiyasi, qiziqish va nutq madaniyati bilan birga rivojlansa, tez o'qish va mazmunni tushunish ko'nikmalari mustahkamroq bo'ladi.

Ushbu adabiyotlar bazasi maqolaga nazariy poydevor sifatida xizmat qildi va mavzuning dolzarbligini hamda metodologik yondashuvlarning zarurligini ko'rsatdi.

METODOLOGIYA. Tadqiqotda pedagogik–psixologik va faol o'qish yondashuvlari nazariyasi uyg'un holda ishlatilgan. Metodologiyada quyidagi yo'llar tanlandi:

Nazariy tahlil – psixologik va pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, bolalar o'qish xususiyatlari va o'qish metodlari bo'yicha tajriba ishlari.

Amaliy sinov (eksperimental darslar) – boshlang'ich sinf o'quvchilarida tez o'qish va anglab o'qish metodlarini sinab ko'rish. Bu jarayonda:

- matnlarni yengil (ertaklar, qisqa hikoyalar) dan boshlash,
- badiiy matnlarni tushunchalar asosida o'qish,
- matn mazmuni bo'yicha oddiy savollar va suhbatlar,
- “skimming/scanning” mashqlari,
- rasmlar asosida hikoya tuzish, sxemalar, xaritalardan foydalanish,
- qayta aytish va qisqa xulosalar yozish kabi usullar qo'llandi.

Monitoring va baholash – dars oldi va dars keyingi testlar, tushunish darajasini, o'qish tezligini va nutqiy tushunishni baholash.

Tajriba natijalarini tahlil qilish – o'zgarishlar dinamikasini, o'quvchilarning qiziqish va motivatsiyasini baholash.

Metodologik yondashuv shuni ta'minladiki – tez o'qish va mazmunni tushunish ko'nikmalarini faqat texnik jihatdan emas, balki psixologik va didaktik jihatdan ham moslab shakllantirish mumkin bo'ladi.

MUHOKAMA. Tajriba jarayonida quyidagi asosiy natijalar kuzatildi:

O'qish tezligi oshdi. Oddiy hikoyalar va kichik matnlar bilan boshlaganda, o'quvchilar bir nechchi dars ichida harflarni ovoqlamasdan, guruh bo'yicha so'zlarni ko'z bilan idrok etishni o'rgandilar. Bu ularning o'qish sur'atini sezilarli darajada oshirdi.

Mazmunni tushunish darajasi yuksaldi. Skimming va scanning usullari orqali o'quvchilar matnda asosiy g'oyani, voqea ketma-ketligini, qahramonlar munosabatini tez aniqlashni boshladilar. Matn asosida qisqa savollarga berilgan javoblar ham aniq va mazmunli bo'ldi.

Tahlil va xulosa chiqarish ko'nikmalari shakllandi. Rasmlar, sxemalar, mind-map va savol-javoblar yordamida o'quvchilar matn mazmunini qayta tuzish, qisqa xulosalar yozish, o'z fikrini ifoda etish imkoniga ega bo'ldilar.

Motivatsiya va qiziqish ortdi. Matn tanlovi bolalar yoshiga va qiziqish darajasiga mos bo'lgani sababli, o'quvchilar darsga faol ishtirok etishdi. Bundan tashqari, ota-ona ham qo'llab-quvvatlashi – uyda o'qish odatini shakllantirishda muhim rol o'ynadi.

Mustahkamlik saqlanmoqda. Bir necha hafta muayyan metodlar bilan shug'ullangach, o'quvchilar o'z-o'zidan matnni tez va mazmunan anglay boshladilar; mustaqil o'qishdan zavq olishdi.

Tahlil shuni ko'rsatdiki, tez o'qish va mazmunni tushunish faqat o'qish tezligidan iborat emas; bu ko'nikma tahlil, idrok, xotira va vizual qobiliyatlarning uyg'unlashishidan iborat bo'lishi lozim. Interfaol va bosqichma-bosqich yondashuv bu jarayonlarda eng samarali hisoblandi.

Shuningdek, tajriba davomida aniqlanishicha, noto'g'ri matn tanlovi – juda murakkab bo'lgan badiiy asarlar yoki o'quvchining yoshiga mos kelmaydigan matnlar – tez va anglab o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

XULOSA VA TAVSIYALAR.

Xulosa: Kichik yoshdagi o'quvchilarda tez o'qish va mazmunni tushunish ko'nikmalarini sistematik ravishda shakllantirish mumkin. Bu nafaqat o'qish sur'atini oshiradi, balki matn mazmunini tahlil qilish, xulosa chiqarish, mustaqil fikr bildirish va ijodiy yondashuv kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi. Tez va anglab o'qish – zamonaviy ta'lim sharoitida bog'liq va kerakli ko'nikma.

Tavsiya qilinadi:

Boshlang'ich sinfga mo'ljallangan darslik va o'quv materiallari yoshga mos, oson va tushunarli bo'lishi lozim.

O'qituvchilar darsda "skimming", "scanning", "rasm – matn tahlili", "mind-map", "savol-javob" kabi interfaol metodlardan muntazam foydalanishlari kerak.

Uyda ota-onalar bilan birga oddiy hikoyalar, ertaklar o'qish, matnlar ustida suhbatlar, rasmlardan foydalanib hikoya tuzish kabi amaliy mashqlar uyushtirilishi tavsiya etiladi.

Maktab kutubxonalarida yosh bolalarga mos, motiva-tsion va rangli rasmlar kitoblar mavjud bo'lishi kerak.

O'quvchilarning o'qish tezligi va tushunish darajasini doimiy monitoring qilib borish, natijalarni baholab, individual yondashuvlar joriy etish muhim.

Yuqoridagi pedagogik yondashuvlar tizimli ravishda joriy etilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi va matn bilan ishlash madaniyati mustahkamlanadi. Bu esa ularda mustaqil o'qish odatlari, tafakkur va ijodiy ko'nikmalarni rivojlantirishga zamin yaratadi.